

**"MARTIN IDEN" ASARIDAGI MARTIN IDENNING HAYOTGA BO'LGAN MUHABBAT****TAFSIOTLARI****Bobur Yangiboy o'g'li Hakimov**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590801>

ANNOTATSIYA: Bu asar Jek London qalamiga mansub bo'lib, roman asosan avtobiografik shaklda yozilgan. Martin Iden va Jek Londonning o'xshash jihatlari juda ko'p. Ikkalasi ham jamiyatning quyi tabaqasidan chiqqan va faqat o'z kuchi bilan adabiyotda ulkan yutuqlarga erishgan. London yoshlida o'zini juda ko'p ishlarda sinab ko'rgan; u dengizchi, zavod ishchisi, kir yuvish shirkati ishchisi sifatidagi tajribasiga tayangan holda mohirona asarlar yozdi. Ruf obrazi esa Jek Londonning birinchi muhabbatni Meybl Epplgartdan olingan. "Martin Iden" romani buyuk yozuvchi Jek Londonning qalamiga mansub bo'lib, birinchi marta 1908-1909-yillarda "The Pacific Monthly" jurnalida chop etilgan, 1909-yilda esa Macmillan Company nashriyotida alohida kitob sifatida nashr etilgan. Ushbu maqolada asar haqida atroflicha fikr yuritiladi hamda asarning bosh qahramoni Martin Iden obrazi tasvirlanadi.

Kalit so'zlar: Matros, Ruf, xat, general, kartoshka, kema, mix, muhabbat, pul

KIRISH

Adabiyotga kirib borilmaydi. Adabiyotga kirib borganlar shunchaki adabiy mehmonlar, xolos! Ular tug'ma emas, surtma talantlardir! Haqiqiy ijodkorlar adabiyotga mezbonlik qiladilar. Badiiy ijodga qiziqish tug'ma bo'ladi. Qonida badiiy ijodga muhabbatni bo'limgan boladan adabiyotga yo'naltirilgan maxsus ta'lim yordamida yozuvchi yoki shoir tarbiyalab bo'lmaydi, albatta. O'z navbatida yuragiga Xudo iste'dod yuqtirgan bola harbiy maktabda o'qisa ham, shubhasiz, kelajakda ijod kishisi bo'lib yetishadi. Lekin, bilamizki, adabiyot o'qituvchisi, universitet professori bo'lish uchun alohida ijodiy qobiliyat shart emas. A'luchi va tirishqoq mакtab o'quvchilari kelajakda adabiyot professorlari bo'lib yetishishlari mumkin. Olim bo'lish uchun, atoqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov aytganlaridek, shim kerak, xolos. Bu degani stolda ko'p o'tirib



ishlaydigan odamning shimining orqasi tez yirtiladi. Olim odam kiygan shimning orqasi ilviragan bo'ladi. Olimlik – tizimli ta'lim va sabr-toqat mahsuli.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Daryo" kolumnisti Nurbek Alimov "*Jahon adabiyotining eng buyuk asarlari*" loyihasi doirasida mashhur badiiy asarlarni tahlil qilish davrida u Jek Londonning "*Martin Iden*" romani haqida shunday hikoya qiladi. Ushbu kitobni ilk bora maktab davrlarida o'qib chiqqanman. Bu roman men eng ko'p qayta o'qigan asarlar o'nligiga kirsa ham ajablanmmayman. Chunki u xarakterimni shakllantirgan, shaxsiy "men"imni topishda yordam bergen asarlardan biridir. Hamisha qiyngan paytlarimda, birorta ish qo'limdan kelmaydi deb yengilish arafasida beixtiyor kitobni o'qishni boshlab, o'zim va Martin Idenni solishtirardim hamda shu ahvolim unikidan ming chandon yengil ekaniga amin bo'lib, olg'a siljishga o'zimda kuch topa olardim. Keyingi hayotimda ham, hech narsa qila olmasligim sababli tushkunlikka tushib qolsam, shunchaki kitobni qo'limga olaman-da, qayta o'qiymen. Boshidan boshlab. U yangi kuch bilan harakat qilish uchun turtki beradi. Martinning tirishqoqligi va mehnat qobiliyati – eng yaxshi motivatsiya. Ixtiyoriy ravishda o'zingizni qahramon bilan bog'laysiz. U muvaffaqiyatga erishdi – men ham erishaman.

NATIJALAR

Bu asarni o'qir ekanmiz avvolo hayot deb atalmish sinovli va mashaqqatlarga to'la va eng oxirida shirin mevasi bilan bizni xursand qiladigan jarayonda biz o'zimizni qanday ruhlantirishni, yiqilganda qaytadan tura olishni kitobimiz qahramoni Martin Iden dan o'rgansak maqsadga muvofiq bo'la oladi deb o'ylaymiz. Uning Ruf ga bo'lgan muhabbat, o'z ustida tinimsiz ishlay olishi boshqa odamlar unga turli xil qarshi fikr bildirsa ham o'zidagi ichki kechinmalariga ishona olishi va o'sha yuragi xohlayotgan o'zi qiziqqan sohada rivojlanish bo'lishini u qalban his qila oldi va eng so'ngida hayot innikosi faqat puldan iborat emaslligini u yana bir bor tushinib yetadi. Unga pul juda kerak payti faqat kartoshka yeb ba'zida haftalab och qolgan paytlari uni hech kim o'ylamadi. Vaqt kelib uning nomi mashhur bo'lgandan keyin esa u bilan hamma birga ovqatlanishni uning asarlarini bosib chiqarishni o'ylaydi. Uning yagona kastyumi bor edi. Och qolganda va yozuv mashinkasi vaqt tigan paytlari u kastyumini garovga qo'yardi va yozishda yana davom ettiradi. U tunlarni bedor o'tkazib ijod bilan shug'ullanadi Martoslikdan voz kechib o'zini adabiyotga



bag'ishlaydi. Bunga Rufga bo'lgan muhabbati juda kata yordam berardi. U ijodlarini Rufga o'qib berardi. Lekin Rufga Martin Idenning yozishlari yoqmasdi. Ruf bir narsani o'ylardi Martin Iden yaxshi joyga ishga kirsa-yu ertaroq to'yini qilsa. Rufning ota onasi bunga qarshi edi, chunki uning puli yo'qligi matrosligi yoqmasdi. Uning muhabbati haqiqiy emasligi bilinib qoladi va Martinning obro'si uchun uning oldiga qaytib boradi. Bu kitobni o'qir ekansiz, Martin Indenning o'limini mohirona tasvirlaganini guvohi bo'lasiz: "Paroxodning bexosdan bir silkinishi unga yordam berdi, u illyuminatoridan chiqib, qo'lida osilib qoldi. So'ng oyog'i suvga tegishi bilan qo'llarini qo'yib yubordi. Oppoq iliq suv uni o'z bag'rige oldi. «Maripoza», ba'zi illyuminatorlaridan yorug' tushib turgani uchun, xuddi tuynuklari bor ulkan qora devorga o'xshab, Martinning yonidan suzib o'tib ketdi. Paroxod tez suzib borardi. Martin es-hushini yig'ib ulgurguncha paroxoddan juda uzoqda qolib ketdi, so'ng okeanning ko'pik qoplagan sathida bamaylixotir suzib ketdi. Martinning oq badanini ko'rib suzib kelgan qilich baliq uning badaniga sanchildi, Martin kulib yubordi. Og'riq uning nima uchun suvga tushganini eslatdi. U suvdan suzib chiqishga urinib, asosiy maqsadini unutib qolgan edi. "Maripoza" chiroqlari uzoqda ko'zdan g'oyib bo'la boshlagan edi, Martin esa, goh u goh bu yerdan yuz mil naridagi eng yaqin sohilgacha suzib yetmoqchi bo'lganday hamon suzib borardi. Bu g'ayri ixtiyoriy hayot instincti edi. Martin suzishni to'xtatdi, lekin og'ziga suv kirishi bilan yana qo'llarini ishga soldi. "Hayotga ishtiyoq" deb o'yladi u va zaharxanda qildi. Ha, u irodali odam, uning astoydil harakat qilib, o'zini yo'q qilishga yetarli darajada mustahkam irodasi bor. Martin suvda tik turdi. U sokin bulutlarga tikilarkan, ayni vaqtida o'pkasidagi butun havoni chiqarib yubordi. U suv qa'rige tezroq chokish maqsadida qudratli qo'l va oyoqlarini tez harakatga keltirib, suvdan beligacha ko'tarildi. U teran suv tubiga misoli oq marmar haykaldek qimir etmay cho'kishi lozim. Martin suv ostiga tushgach, nafas olib, ichiga suv torta boshladni, bu harakati bilan tezroq hushdan ketish maqsadida narkotik dorini ichiga tortgan bemorni eslatardi. Lekin suv tomog'iga kirib, uni bo'g'a boshlagan edi, u beixtiyor, instinct kuchi bilan suv betiga suzib chiqdi va boshi uzra porloq yulduzlamni ko'rni! Hayot ilinji, deb otyladi nafrat bilan, nafas olmaslikka behuda urinarkan. Na iloj, boshqacha yo'l tutishga to'g'ri keladi. U chuqur nafas olib, o'pkasini havoga to'ldirdi. Ummon tubiga uzoqroq sho'ng'ish uchun shuning o'zi yetarli. So'ngra jahd bilan ag'darildi-da, bor kuchi va bor irodasini ishga solib, boshi bilan suvga sho'ng'idi". Va bu dunyo tashvishlaridan qutildi. Unga na muhabbati vafo qildi, na topgan pullari.



XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Jek Londonning Martin Iden asari avtobiografik asar hisoblanadi bu asarda qahramonimiz hayotda o'z o'rnini topish, sevgan qiziga munosib inson bo'lish uchun tinimsiz harakat qiladi uqlab qolmaslik uchun hatto joyiga mix ham qoqib chiqadi. Va ko'zlagan maqsadiga yetadi va uning mansabi, nomi uchun ardoqlaydigan odamlardan qochadi. Pulga zor bo'lgan paytlarda yuborgan ijodiy ishlarini gazetalar qaytaradi va Martin mashhur bo'lgandan so'ng ular uchun yozgan asarlariga qimmat narx so'raydi go'yoki ulardan qasos olganday bo'ladi. Asar so'ngida Martin Iden o'z fojiyasi bilan yakun topadi

REFRENCES:

1. *Martin Iden/Jek London. Ruschadan Qodir Mirmuhamedov tajimasi. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. - 608 b.*
2. Nurbek Alimov "Jahon adabiyotining eng buyuk asarlari"
3. *Karimov, N. (2008). XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O'zbekiston.*
4. *Abdullayeva, O. O. (2021). Abay ijodini o'rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational sciences, 2(3), 4-9.*
5. *Abdullayeva, O. O. (2021). Ibroyim Yusupov ijodi asosida o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'ularini o'stirish. Academic research in educational sciences, 2(3), 176-180.*
6. *Botirboyev, F. P., Abdullayeva, O. O., & Shermatova, U. S. (2021). O'ljas Sulaymonov ijodini o'rganishda savol va topshiriqlar ustida ishlash. Academic research in educational sciences, 2(4), 2013-2018. <https://doi.org/10.24411/2181-1385-2021-00834>*
7. Abdullayeva, O. (2021) Badiiy asarlarning inson ruhivatiga ta'siri. *Scientific progress, 1(5), (pp. 272-275)*
8. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). O'zbek tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyaiaming o'rni. *Scientific progress, 1(5)*
9. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. *Студенческий вестник, 16(161)*
10. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). OTLARNING BIRLIK VA KO'PLIKDA QO'LLANILISHINI O'RGAATISH. *Scientific progress, 2(1)*



11. Abdullayeva, O. O. Q. (2021). XALQARO TADQIQOTLAR VA ULARNING ADABIYOT FANIDA TUTGAN O'RNI. *Scientific progress*, 2(1)
12. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) O'lmas Umarbekov hayoti va ijodini o'rghanishda interfaol metodlar bilan ishlash. *Science and education*, 2(5)
13. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) Saidah Zunnunova hayoti va ijodini o'rgatishning samarali usullari. *Science and education*, 2(5)
14. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) Said Ahmad hikoyalarini o'rghanishda interaktiv metodlar. *Science and education*, 2(6)
15. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) Umumiy o'rta ta'limda ertak o'qitish metodikasi. *Scientific progress*, 2(2)
16. Ozoda Odiljon qizi Abdullayeva. (2021) Chingiz Aytmatovning "Oq kema" asarini o'qitishda interaktiv usullar. *Scientific progress*, 2(2)